TARBIYA DARSLARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Sheraliyeva Nasiba Alimkulovna
Guliston davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya darslarida o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitob mutolaa qilish odobi, kitobdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘qish darslarining ahamiyati yoritib berilgan.Kitob avvalo ma’naviyat manbayi , hayotiy maktabdur. Farzandlarimizni qanchalik kitobxon qilib tarbiyalasak jamiyatimiz shunchalik rivojlanadi va ziyoli bo’ladi. Ma’naviyatni yuksaltirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, kitob mutolaasi insonni ma’naviy kamolot sari yetaklashini, insonni har tomonlama yetuk, komil shaxs sifatida shakllanishidagi o‘rni nihoyatda beqiyosdir. Jumladan, sharq mutafakkirlari qarashlarida, g‘oyalarida,

asarlarida inson kamoloti, ma’naviy yetuklik, vatanparvarlik, ta’limtarbiya kabi masalalarda qimmatli ma’lumotlar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Ma’naviyat, yoshlar, madaniyat, kitob mutolaasi, komil shaxs, g‘oyalar, mutolaa, kitobxonlik, ta’lim-tarbiya, mustaqil o‘qish, sinfdan tashqari o‘qish.

Annotation: this article highlights the importance of reading lessons in the formation of reading culture, the etiquette of reading, the skills of correct use of the book in the lessons of Education.The book is primarily a source of spirituality , a life School. The more readers we raise our children, the more our society develops and becomes intellectual. The role of raising spirituality, the formation of a culture of reading among young people, the reading of the book leads a person towards spiritual perfection, and the formation of a person as a mature, perfect person in every possible way is extremely incomparable. In particular, in the views, ideas, works of Eastern thinkers, valuable information was given on such issues as human perfection, spiritual maturity, patriotism, education. The role of raising spirituality, the formation of a culture of reading among young people, the reading of the book leads a person towards spiritual perfecting.

Keywords: spirituality, youth, culture, book reading, perfect personality, ideas, reading, reading, education, independent reading, extracurricular reading.

Bugungi globallashuv davrida yosh avlodning ma’naviy olamini boyitish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash har qachongidan ham muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda "Tarbiya" fanining o‘rni beqiyosdir. Tarbiya darslari o‘quvchilarda axloqiy sifatlarni shakllantirish, ularni ijtimoiy mas'uliyatli, adolatli va halol insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan. Ushbu maqsadlarga erishishning eng samarali vositalaridan biri esa shubhasiz, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdir. Zero, kitob inson tafakkurini o‘stiruvchi, dunyoqarashini kengaytiruvchi va ma’naviy kamolotga yetaklovchi bebaho xazinadir. Inson tafakkurining o‘sishi, bilim doirasining kengayishi, olam va voqealar haqidagi tasavvurlarining oshishi, insonning tinmay mutolaa qilishiga, o‘z ustida tinmay izlanishiga bog‘liq. Kitobxonlik madaniyatini yoshlikdan shakllantirib boorish lozim. Kitobning inson hayotidagi o‘rni beqiyosdir.

Yoshlikdan bolada kitobga mehr tuyg‘usini uyg‘otish, bolaning ma’naviy oziqlanishiga, kamol topishiga yordam beradi. Ma’naviy barkamol, sog‘lom fikrli Bolani kamol toptirishda boshlang‘ich ta’limning o‘rni kattadir. Bolada kitobga mehr uyg‘otish , avvalo, oiladan boshlanadi. Ota-ona kitob mutolaa qilsa, farzandda ham asta-sekin kitob mutolaa qilish ko‘nikmalari shaklllanadi. Bolaga yoshlikdan qiziqarli ertaklar, hikoyalarni mutolaa qilib berish kerak. Maktabga endigina qadam qo‘ygan bola kitobning qanchalik qimmatbaho boylik ekanligini anglab yetishi zarur. Bizning rivojlanib borayotgan mamlakatimizda ham kitobxonlikka katta e’tibor qaratilgan. Kitob, avvalo, hayotiy makyab, ma’naviyat manbaidir.

Yurtboshimiz tashabbuslari bilan mazkur masalalarga davlat siyosati darajasida qaralib, samarali ishlar yo’lga qo’yildi. Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning quyidagi fikrlarida ham yaqqol aks etgan: “Ayni paytda, axborotkommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o’zlashtirish bilan 75 birga, yoshlarning kitob o’qishga bo’lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do’st bo’lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo’ladi.

Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ’ib qilishga alohida e’tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb yetadi”. Prezidentning 2017 yil 12 yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ibot qilish bo’yicha komissiya tuzish to’g’risida”gi F-4789-

sonli Farmoyishi bu borada keng ko’lamli islohotlarni amalga oshirishga zamin yaratdi. 2017-yil 13-sentyabrda “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ’ib qilish bo’yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to’g’risidagi” PQ-3271-sonli qarorning qabul qilinishi va uning doirasida belgilangan vazifalar ham yurtimizda kitob mahsulotlarini chop etish, aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish borasida katta o’zgarishlarga zamin yaratdi.

Mamlakatimiz bo’ylab “Yosh kitobxon”, “Eng faol kitobxon guruh”, “Eng kitobxon oila” tanlovlarining tashkil qilinishi va g’olib kitobxonlar turli darajadagi qimmatbaho sovg’alar bilan taqdirlanishi, yirik nashriyotlar tomonidan o’zbek xalqi va jahon adabiyotining durdona asarlari qayta tahrirlanib, yanada sifatli nashr etilishi, ijtimoiy-ma’naviy ko’makka muhtoj fuqaro va oilalarga badiiy-estetik salmoqdor kitoblar, badiiy adabiyotlarning tuhfa qilinishi ushbu qonunlarda belgilangan vazifalar ijrosi bo’lishi bilan bir qatorda aholi, xususan, yosh avlodning mutolaa madaniyatini kamol toptirishga, ma’naviy-ma’rifiy tafakkurini yuksaltirishga keng imkoniyatlar yaratib bermoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini targ‘ib qilish borasidagi ishlar ko‘lami sifat darajaga ko‘tarildi. Xususan, O‘zbekiston prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks choratadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdagi № 781-sonli qarori bilan 2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi va boshqa qator hujjatlar soha rivoji uchun dasturul amal vazifasini o‘tamoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdagi № 781-sonli qarori bilan 2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini uch bosqichda amalga oshirish ko‘zda tutilgan. I bosqich – 2020- 2021 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillash-tirish chora-tadbirlarini amalga oshirish; II bosqich – 2022-2023 yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash; III bosqich – 2024-2025 yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o‘sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash kabi muhim mezonlar belgilangan.

Shuningdek, aholi, avvalo, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko‘maklashish, bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo‘llab-quvvatlash, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o‘rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish kabi dolzarb vazifalar ko‘zda tutilgan.

Kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish, «Eng yaxshi kitobxon hudud», «Eng yaxshi kitobxon mahalla», «Eng yaxshi kitobxon ta’lim muassasasi» kabi reytinglarni joriy etish va boshqa muhim vazifalar belgilangan.

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Intellektual va shaxsiy rivojlanish Kitobxonlik madaniyati shakllantirish orqali o‘quvchilar va yoshlar nafaqat bilim olishadi, balki intellektual va shaxsiy rivojlanish uchun zarur bo‘lgan asoslarga ega bo‘lishadi. Kitoblarni o‘qish kishining dunyoqarashini kengaytiradi, o‘z fikrini mustaqil ravishda rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga,

ularning aqliy faolligi ortadi, va mustahkam bilim asosida muammolarga yechim topishga qodir bo‘ladilar.

2. Axloqiy-estetik tarbiya Kitoblar nafaqat ilmiy bilimlarni, balki axloqiy va estetik qadriyatlarni ham o‘rgatadi. Klassik adabiyotlar, felsefi asarlar, badiiy asarlar insonni ma'naviy jihatdan to‘ldiradi, uning ahloqiy fazilatlarini shakllantiradi. Kitobxonlik madaniyati axloqiy va estetik tarbiya masalalarida ham ijtimoiy muhim rol o‘ynaydi. Kitoblar orqali yoshlar o‘zlarining ichki dunyosini anglab, haqiqat va adolat, do‘stlik va sadoqat, vatanparvarlik kabi insoniy qadriyatlarni anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3. Pedagogik jarayonda kitoblar va o‘qishning roli ta'lim tizimida kitoblarning roli beqiyosdir. Kitoblar nafaqat ta'limning ilmiy poydevorini yaratadi, balki pedagogik jarayonda o‘qituvchining hamkoriga aylanadi. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda o‘qituvchining rolini e'tiborga olish zarur. U kitoblarni o‘quvchilarga tanishtirishda, ularga o‘qishni qiziqarli va foydali qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari, o‘qituvchi o‘quvchilarga kitoblarni to‘g‘ri tanlash va ulardan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar berishi lozim.

4. Jamoaviy va madaniy taraqqiyot kitoblar jamoaviy madaniyatni rivojlantirishda ham katta rol o‘ynaydi. Ular odamlar o‘rtasidagi kommunikatsiyani, tushunishni va axborot almashinuvini osonlashtiradi. Kitobxonlik madaniyati nafaqat individual o‘qish jarayoni, balki jamoa bilan birgalikda o‘qish, munozaralar o‘tkazish, fikrlarni almashish kabi ijtimoiy jarayonlarni ham o‘z ichiga oladi. Bunday faoliyatlar orqali insonlar o‘rtasida do‘stlik, hurmat va bir-birini tushunish hissi mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, "Tarbiya" darslarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish o‘quvchilarning ma’naviy dunyosini boyitish, ularda yuksak axloqiy fazilatlarni tarbiyalashning muhim shartidir. Bu jarayon uzluksiz, tizimli va maqsadli ravishda olib borilishi, unda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ota-onalar bilan hamkorlikka alohida e'tibor qaratilishi lozim. Zero, bugun kitobga oshno bo‘lgan yoshlar ertaga mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shadigan barkamol shaxslar bo‘lib yetishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston prezidentining 2017 yil 13 sentyabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks choratadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori
2. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 dekabrdagi № 781-sonli qarori bilan 2020–2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturi.
3. Xudoyberdiyev, I. (2012). Ta'limda kitobxonlik madaniyati. Toshkent: O‘zbekiston davlat nashriyoti.
4. Karimova, G. (2017). Pedagogik jarayonlarda kitobning roli. Toshkent: Ta'lim.
5. Ibrohimov,S. (2019). Yoshlar tarbiyasida kitobxonlikning ahamiyati. Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
6. Saidov, R. (2021). Kitob va madaniyat. Tashkent: Sharq.